

PAPER

YAPON MULOQOT JARAYONIDA INKOR KATEGORIYASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Boymurodova Dilafruz Dilshod qizi¹, *

¹Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti Yapon filologiyasi kafedrasida stajyor–o‘qituvchisi

* boymurodovadilafruz@mail.ru

Abstract

Ushbu maqolada yapon yilida inkor shaklining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini lingvistik, pragmatik hamda madaniy kontekstda tahlil qilinadi. Yapon madaniyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘q deyish o‘rniga noaniq yoki bilvosita ifodalardan foydalanishadi. Bu usul orqali o‘zidan yuqori mavqedagi shaxslarga rad javobini berishda bilvosita idodalar orqali ifodalanadi.

Key words:

inkor shakllar, bilvosita inkor, bevosita inkor, ない, aniqllovchi shaklda, ずに – taslim bulish shakli, ざれ – shartli shakl, ずん – buyruq shakllardan iborat

Kirish

Yapon tili ming yillar davomida diaxronik lingvistik materiallar to‘plangan kam sonli tillar qatoriga kirishi bilan bizni ilmiy ishimizni osonlashtiradi. Zamonaviy yapon tilida tadqiqotni ifodalovchi inkor buyruq gaplarning fe‘l shakllarining oxiriga ない qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Muramachi davriga kelib bu usulda inkor shaklini yasash formasi uchun yagona shakl sifatida o‘rnatildi. Bu shakl Edo davrining boshlarigacha amal qildi. Bunga qo‘shimcha –so shakli ham birgalikda inkorni ifodalaydi. Fe‘l+na shakli so‘zlovchining suxbatdoshga nisbatdan majburlash, pand – nasihat ma‘nosida ko‘proq ishlatilib, na + fe‘l +so shaklida esa kuchli tadqiq jarayonida keng qo‘llanilgan.

Bundan tashqari na qattiq taqiqni ifodalab asosan erkaklar jamoasida qo‘llaniladi yoki bo‘lmasa juda ham yaqin do‘stona munosabatda qo‘llanilishi ham mumkin. な dan keyin keladigan よ yuklamasi biroz taqiqni yumshatsa ham oddiy shakl hisoblanib asosan yoshi kichik bolalarga va qarindoshlar bilan bo‘lgan muloqotda qo‘llaniladi. Masalan: この ように いう な kono youni iuna.

勿れ inkor shakli qadimgi bungo tiklidan kelib chiqqan bo‘lib hozirgi kunda OAVlari va badiiy uslubda ritorik shartli taqiq ma‘nosida qo‘llaniladi. せいをふんおそるなかれ Seovunde osoru nakare haqiqat yolinda yur va qurqma.

ず (に)、ざる inkor shakli eski yapon yozuvida inkor suffiksi sifatida zu qushimchasi qo‘llanilgan va u quyidagi ma‘nolarda

qo‘llanilgan: u tugallangan ma‘noda

ざる – aniqllovchi shaklda

ずに – taslim bulish shakli

ざれ – shartli shakl

ずん – buyruq shakllardan iborat.

Zamonaviy yapon tilida zuni va zaru shakllari asosan qo‘llaniladi bu qo‘shimchalar zamon kategoriyasi mavjud emas va asosan fe‘l larga bog‘lanib qo‘llaniladi. ずに va ざる suffikslari asosan yozma uslubda qo‘llanilib ogzaki uslubda faqatgina turg‘un grammatik birliklarda maqollarda fraziologik iboralarda ishlatiladi. Masalan:

わらうかおにやたらず kulib turga yuzga o‘q uchmaydi.

ずに va ざる inkor suffikslari hozirgi zamonaviy yapon tilida quyidagi shakllarda ifodalanadi:

いう Aytmoq	いわず (に) aytmaslik	いわざる aytmaslik
きく eshitmoq	かかず (に) eshitmasdan	かかざる eshitmaslik
はなす gapirmoq	はなさず (に) gapirmasdan	はなさざる gapirmaslik
まっ kutmoq	またず (に) kutmasdan	またざる kutmagan
とぶ Uchmoq	とばず (に) uchmasdan	とばざる uchmaslik
よみ o‘qimoq	よまず (に) o‘qimasdan	よまざる o‘qimasdan
わかる tushinmoq	わからず (に) tushinmasdan	わからざる tushinmaslik
くる Kelmoq	こず (に) kelmasdan	こざる kelmaslik

o‘rta boglovchi shaklda zu qo‘llanilish jixatdan nakute formasi

bilan bir xil bo'ladi. Masalan: 何もみえず、つまらないえんそくだった nanimo miezu tsumaranai ensokudatta xech narsa kurinmaydigan zerikarli sayohat. Ushbu shakl bundan tashqari gazeta va jurnallarning kirish jumllarida ham qo'llaniladi. Yozma uslubdagi sushte shakl する felidan kelib chiqqan bo'lib aniqlovchi ma'nosini beradi va *ず* ないで formalariga ekvivalent hisoblanadi. Masalan: てけおしらずしてたたかない dushmanni bilmay turib urushish mushkil.

ず とも inkor shakli esa yozma uslubda qo'llanilib taslim ma'nosini ifodalaydi va *なく* ても inkor shakliga sinonim hisoblanadi. Masalan: 私たちは誂さずともおたがいにかいできる biz gaplashmasak ham bir birimizni tushinamiz.

o'rta hol formasi *ない* で shakliga ekvivalent bo'lib qilmasdan, qilmay turib ma' nolarida qo'llaniladi. Masalan: なにもいわず にでていった xech narsa demasdan chiqib ketti *ず* にいる shakli *ない* である shaklining adabiy shakli bo'lib harakatning amalga oshmasligini ifodalaydi.

Aniqlovchi shakl ざる shakli qadimgi bungo yozuvidan kelib chiqqan bo'lib asosan adabiy uslubda qo'llaniladi. Zamonaviy yapon tilida zaru formasi sifatdosh sifatida qo'llanilib sifatdoshga aylangan kitoblar film va reklama nomlarini ifodalashda qo'llaniladi.

Qisqa qilib aytadigan bo'lsak *-na + fe'l + so* shakl qadimgi qo'llanilish shakli hisoblanib, hozirgi vaqtda *fe'l so'zidan ildin -ni* qo'llaniladi, *so'z* boshidagi *-na* tushib qoladi va *so'z* oxiridagi *-so* ning o'rnida ishlatilib quyidagi *-fe'l +na* shaklda ishlatila boshlaydi. Kech muramachi davridan boshlab Edo davrigacha bo'lgan davrda shu shakllarni o'zgarib borishi va qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Zamonaviy yapon tilida salbiy imperativlarini ko'rinishi *fe'l + na* holatida qo'llaniladi. Yapon tilini o'rganish jarayonida inkor gaplarning sintaktik xususiyatlari va ularni qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'rinlar va kategoriyalari haqida *so'z* yurutdik va yapon tilida inkorni ifodalashning yetarlicha usullari mavjud. Ularni morfologik va leksiklarga bo'lish mumkin, ular o'z navbatida sintaktiklarni tashkil qiladi degan xulosaga keldik va hozir mavzudan chetlashmagan holda inkorni nazariy jihatdan ko'rib chiqamiz.

Adabiyotlar

1. MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS. 2024 YAPON TILIDAN O'ZBEK TILIGA BILVOSITA TARJIMANING AYRIM MUAMMOLARI
2. 森英樹. 日本語否定命令文の国史的国遷福井国立大学論集第 4 0 号 2 0 1 3. 2 1p
3. “国辞苑” 国岩波書店-2012. 6. “ミニこ
4. 「日本語の二重否定の構造」『日本学研究論集』北京外国語大学日語友 (1994)
5. 「『どんな時どう使う日本語表現文型辞典』ア日本国語大辞典編集委員会 (1972)
6. 『日本国語大辞典』第十国小学館 (1972)
7. 森英樹. 日本語否定命令文の国史的国遷福井国立大学論集第 4 0 号 2 0 1 3. 2
8. 陶振孝 (1991)「日本語の二重否定について」『日本語学』vol.10 No. 明治書院
9. 小川国” みんなのにほんご-II, 日本、2018.
10. “日本語文法入門” — アルク、2014.
11. みんな日本語中級 1 本国 2 0 0 9 年 3 月 3